

7.7. AMALIY MASHG'ULOT. UMURTQALILARNING QON AYLANISH SISTEMASINI MODELLASHTIRISH VA TAQQOSLASH



Maqsad: baliq, baqa, kaptar misolida qon aylanish sistemasi organlari tuzilishini va qon aylanish doirasini modellashtirish va taqqoslash.

Moddalar transporti hayvonlarning qon aylanish sistemasi orqali ta'minlanadi.

Bizga kerak: qaychi, qalam, ruchka, 0,5 l banka, shar, ikkita naycha, qizil bo'yoq.

Xavfsizlik qoidalari:   

Ishni bajarish tartibi:

1. Amfibiya va reptiliyaning qon aylanish sistemasini taqqoslang.
2. Yurak modelini yasang.
- a) 0,5 litrli bankaning yarmigacha suv solib, qizil bo'yoq qo'shing;
- b) sharning kengaygan qismini kesib oling;
- c) kesilgan shar bilan banka og'zini yoping, chetini rezinka yordamida mahkamlang;
- d) shardan ikkita teshik ochib naychani joylashtiring;
- e) bankani katta idishga qo'ying;
- f) sharning o'rta qismi bosilganda, qonning naychadan otilib chiqishini kuzating;
- j) xulosa qiling.



4. Ma'lumotlarni tahlil qiling.

№	Ma'lumot	Ha / Yo'q
1.	Baliq yuragida venoz qon oqadi.	
2.	Baqaning qon aylanish sistemasi yurak qorinchasidan boshlanadi.	
3.	Amfibiya va reptiliyaning qon aylanish sistemasi o'xshash.	
4.	Qon aylanish sistemasi qanday ishlashiga ko'ra hayvonlar sovuqqonli yoki issiqqonli bo'ladi.	
5.	Sutemizuvchilarda yurakning chap tomonida arterial qon, o'ng tomonida venoz qon oqadi.	
6.	Qushlarning kichik qon aylanish doirasi chap qorinchadan boshlanib, o'ng bo'lmachada tugallanadi.	

Muhokama qiling va xulosa chiqaring.